



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

**YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON MAHALLALARI UYUSHMASI QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI BOSHQARMASI**

QO'SHMA QARORI

“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar, 30 yoshdan yuqori bo'lgan aholi vakillari, ta'lim muassasalaridagi o'quvchi talabalar hamda maktabgacha yoshdagi yoshlar o'rtasida besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-201-sonli qarorining 1-ilova 6.2-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (keyingi o'rinlarda hamkor tashkilot) **qaror qiladi:**

1. Mazkur qo'shma qaror:

mahallalardagi yoshlar, 30 yoshdan yuqori bo'lganlar hamda ta'lim muassasalaridagi o'quvchi talabalar o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularni ommaviy sportga jalb etishni yangi bosqichga olib chiqish;

sportning yengil atletika, stol tennisi, shashka, shaxmat, futbol, mini-futbol, voleybol, stritbol, kurash, gimnastika, gandbol, armrestling va workout (ustuvor) hamda milliy va adaptiv turlari bo'yicha besh bosqichli musobaqalarning (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) maqsadi va

asosiy vazifalari, sport musobaqalarini tashkil etish va boshqarish, ularni o'tkazishga rahbarlik qilish, moliyalashtirish, shuningdek, musobaqa g'olib va sovrindorlarini taqdirlash tartibini belgilaydi;

mahallalarda istiqomat qiluvchi **5-30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni** hamda 30 yoshdan yuqori bo'lgan aholini va ta'lim muassasalarining **o'quvchi va talaba yoshlarini** ommaviy tarzda sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun mexanizm yaratish;

hududlardagi mahallalarda ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish orqali ayniqsa, qishloq joylarida yoshlar va uyushmagan yoshlarni hamda aholining keng qatlamlarini bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, jinoyatchilikni oldini olish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni jismonan sog'lom va har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish maqsadida mahalla, sektor, tuman (shahar) va hududiy mahalla terma jamoalarini shakllantirish;

mahallalarda istiqomat qiluvchi **yoshlar va uyushmagan yoshlar, 30 yoshdan yuqori bo'lgan aholi vakillari**, ta'lim muassasalaridagi **o'quvchi talaba yoshlar** o'rtasida ommaviy sport musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish orqali, ular orasidan jismonan baquvvat, iqtidorli, tug'ma iste'dodi bor yoshlarni saralash (seleksiya) orqali sport ta'lim muassasalarida muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishlari uchun jalb qilish;

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar, 30 yoshdan yuqori bo'lgan aholi vakillari, ta'lim muassasalaridagi o'quvchi talabalar o'rtasida besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida ishchi guruhi tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligi:

besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish uchun shart-sharoitlar yaratish;

mahalla yoshlari hamda ta'lim muassasalari o'quvchi talabalari o'rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazishni ta'minlash;

mahallalardagi mavjud sport maydonchalari va inshootlari (ochiq, yopiq)ni xatlovdan o'tkazish;

sport turlari bo'yicha sport ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan trenerlarni mahallalarga biriktirish;

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sport federatsiya va assotsiatsiyalari bilan kelishilgan holda ommaviy sport musobaqalariga tajribali trenerlardan hakamlar hay'ati tarkibini tasdiqlash;

ko'chalararo mahalla bosqichida ishtirok etish hamda mahalla jamoasi tarkibiga saralab olinayotgan yoshlar Sport vazirligi tomonidan tashkil etilgan

Stashabbus.uz elektron platformasidan ro'yxatdan o'tishlarini muntazam ravishda nazorat qilish va monitoringini yuritish;

ommaviy sport musobaqalarida "Besh tashabbus olimpiadasi" ga doir banner bilan ta'minlash;

yosh toifalari va sport turlari bo'yicha mahalla yoshlarini Stashabbus.uz elektron platformasidan ro'yxatdan o'tkazish;

besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarining to'rtinchi hududiy bosqichlari g'olib va sovrindorlarni taqdirlash;

sport federatsiya (assotsiatsiya)lar bilan birgalikda tuman (shahar)lardagi umumta'lim muassasalaridagi yaratilgan shart-sharoitlarni, o'quvchilarni sport turlariga bo'lgan qiziqishlarini o'rganib, sport turlariga ixtisoslashitirish;

oliy ta'lim muassasalarining biriktirilgan professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, bitiruvchi kurs va magistratura talabalariga sport maktablarida yangi metodika va yondashuvlarni bevosita joriy qilish, dual ta'limning ilmiy-amaliy bazasiga aylantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berish.

3. Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi:

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlarni ommaviy sport musobaqalariga jalb etish yuzasidan targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

yosh toifalari va sport turlari bo'yicha mahalla yoshlarini Stashabbus.uz elektron platformasidan ro'yxatdan o'tkazish;

besh bosqichli ommaviy sport musobaqalariga mahalla yoshlarini to'liq ishtirokini ta'minlash;

ommaviy sport musobaqalarida "Besh tashabbus olimpiadasi" ga doir banner bilan ta'minlash;

ommaviy sport musobaqalari nizomiga asosan musobaqalarning *(ko'chalararo mahalla, mahallalararo sektor, sektorlararo tuman (shahar) bosqichi)* g'olib va sovrindor bo'lgan jamoalarni taqdirlash;

besh bosqichli ommaviy sport musobaqalari ommaviy axborot vositalarida yoritilishini tavsiya etish hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi:

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida umumta'lim maktablari ishchi-xodimlari, o'quvchilarini hamda bog'cha tarbiyalanuvchilarini ommaviy

sport musobaqalariga jalb etish yuzasidan targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

ishchi-xodimlar, maktab o'quvchilar va bog'cha tarbiyalanuvchilarini sinflar kesimida, yosh toifalari va sport turlari bo'yicha 5tashabbus.uz elektron platformasidan ro'yxatdan o'tkazish;

ommaviy sport musobaqalari o'tkaziladigan umumta'lim maktablarining sport inshootlarini tayyorlash hamda musobaqalarning barcha bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi maktablarining ishchi-xodimlari, o'quvchilarni hamda bog'cha tarbiyalanuvchilarini to'liq ishtirokini ta'minlash;

o'tkaziladigan ommaviy sport musobaqalarda faol ishtirok etib g'olib va sovrindor bo'lgan iqtidorli o'quvchilarni sport turlari bo'yicha saralash seleksiya orqali ro'yxatini shakllantirish hamda sport maktablariga jalb qilishda amaliy yordam berish;

ommaviy sport musobaqalarning (Qoraqalpog'iston Respublikasi *bosqichidan tashqari*) barcha bosqichlarida g'olib va sovrindor bo'lgan ishchi-xodimlar, o'quvchilarni hamda bog'cha tarbiyalanuvchilarini taqdirlash;

sport musobaqalarini ommaviy axborot vositalarida yoritilishini tavsiya etish hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish;

sport turlariga ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ixtisoslashtirilayotgan sport turlari bo'yicha barcha zarur shart-sharoitlar yaratish.

5. O'zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi:

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida **30 yoshdan yuqori** bo'lgan aholini ommaviy sport musobaqalariga jalb etish yuzasidan targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

30 yoshdan yuqori bo'lgan aholini sport turlari bo'yicha 5tashabbus.uz elektron platformasidan ro'yxatdan o'tkazish;

ommaviy sport musobaqalari o'tkaziladigan sport inshootlarini tayyorlash;

musobaqalarning barcha bosqichlarida **30 yoshdan yuqori** bo'lgan aholini to'liq ishtirokini ta'minlash;

sport musobaqalarini ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga tavsiya etish hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish;

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi ishchi guruhiga:

6.1. "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkaziladigan sport musobaqalari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, kunlik ma'lumotlar jadvalini umumlashtirib tahlil qilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etish;

6.2. Joylarda o'tkaziladigan sport musobaqalariga yoshlar va o'qchuvchi, talaba yoshlarni jalb etish bo'yicha tuman, shahar kesimida aniqlangan muammolarni tuman ishchi guruhi darajasida hal etish choralarini ko'rish;

6.3. Sportning yengil atletika, stol tennisi, shashka, shaxmat, futbol, mini-futbol, voleybol, stritbol, kurash, gimnastika, gandbol, armrestling va workout turlari bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarni Qoraqalpog'iston Respublikasi ishchi guruhlari tomonidan taqdim etilgan monitoring bo'yicha natijalari past bo'lgan mahalla, tuman, shahar holatini yaxshilash yuzasidan amaliy yordam ko'rsatish.

6.4. Belgilab qo'yilsinki, "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkaziladigan ommaviy sport musobaqalariga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli monitoring olib borish bo'yicha ma'lumotlarni haqiqiyliги bo'yicha tasdiqlangan ishchi guruhlariga shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.


7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vaziri o'rinbosari A.Qalbaev, Yoshlar ishlari agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari M.Tursunov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vaziri o'rinbosari Q.Ismailov, O'zbekiston mahallalari uyushmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari A.Primbetov zimmlariga yuklatilsin.



Qoraqalpog'iston Respublikasi
Sport vaziri

E.Qutibaev
2026-yil "20" *fevral*
01-14/26 -son


Yoshlar ishlari agentligi
Qoraqalpog'iston Respublikasi
boshqarmasi boshlig'i

P.Maqsetbaev
2026-yil "20" 02
01-06/02 -son


Qoraqalpog'iston Respublikasi
maktabgacha va
maktab ta'limi vaziri v.v.b

M.Shimbetova
2026-yil "20" 02
6 -son


O'zbekiston mahallalari uyushmasi
Qoraqalpog'iston Respublikasi
boshqarmasi boshlig'i

S.Turmanov
2026-yil "20" 02
7 -son